

INNOVATION ENVIRONMENT AND ITS STRUCTURE

Alikulov Umrzak Murtazaevich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11195791>

Annotatsiya. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanirishning muhim shartlaridan biri sifatida innovatsion muhitni yaxshilash masalalarining nazariy tadqiqi mazkur maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: milliy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, innovatsiya, innovatsion iqtisodiyot, innovatsion muhit, raqobatbardoshlik.

THE CONCEPT OF THE INNOVATION ENVIRONMENT AND ITS STRUCTURE

Abstract. This article reflects a theoretical study of the issues of improving the innovation environment as one of the most important conditions for the sustainable development of the national economy.

Keywords: national economy, sustainable development, innovation, innovative economy, innovative environment, competitiveness.

КОНЦЕПЦИЯ ИННОВАЦИОННОЙ СРЕДЫ И ЕЕ СТРУКТУРА

Аннотация. В данной статье отражено теоретическое исследование вопросов улучшения инновационной среды как одного из важнейших условий устойчивого развития национальной экономики.

Ключевые слова: национальная экономика, устойчивое развитие, инновации, инновационная экономика, инновационная среда, конкуренто-способность.


Jahon tajribasi barcha sohalarda sifatli o‘sishni ta’minlovchi yangiliklarni uzliksiz tarzda amaliyotga joriy etish jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligini ko‘rsatmoqda. Bugun rivojlanishning innovatsion modellari va “aqli” texnologiyalar amalga oshirilayotgan mamlakatlar eng muvaffaqiyatli va barqaror hisoblanadi.

Bunday mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti, ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan foydalanishga emas, balki innovatsion g‘oyalar va ishlanmalarga asoslanadi. O‘zbekistonni ishlab chiqarishda innovatsiya va intellektual hissanning yuqori ulushi bo‘lgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, zamonaviy va global bozorda raqobatbardosh sanoatga, shuningdek, qulay investitsiyaviy va ishchanlik muhitiga ega jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylantirish dolzarb vazifa sifatida belgilab olingan. Qo‘yilgan maqsadlarga O‘zbekistonni rivojlanishning innovatsion modeliga to‘liq o‘tkazmasdan turib erishish mumkin emas, bu mamlakatda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni amalda joriy qilishni rag‘batlantirishning samarali tizimini yaratish zaruratini taqozo etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizning asosiy muammolaridan biri shundaki, mamlakatimiz iqtisodiyotini innovatsion asoslarga o‘tkazish masalalarini hal qilishning innovatsion sifat va va mexanizmlari to‘la-to‘kis ishlab chiqilgani yo‘q. Mamlakatimizda innovatsion g‘oyalarning tug‘ilishiga va ularni tijoratlashtirishga yordam beruvchi to‘laqonli innovatsion muhit mavjud emas. Bu innovatsion rivojlanish sohasida mustahkam qonunchilik bazasining yaratilmaganligi

bilan bog‘liq. YUqorida tilga olib o‘tilgan muammolarning yechimi bizning fikrimizcha quyidagi ikkita holat bilan bog‘liq.

Bu, birinchidan, bugungi kunda dunyoning barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda shakllanib ulgurgan milliy innovatsion tizimlarning tarkibiga kiruvchi institutlar va tashkilotlarning umumiyligi sifatida innovatsion taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko’rsatuvchi tashqi shart-sharoitlarni yaratish zaruriyati bilan belgilansa, ikkinchidan esa, xo‘jalik yurituvchi sub`yeqtarda butun bir innovatsion tsikl davomida g‘oyalarning tug‘ilishi va ularning tijoratlashuviga imkon beruvchi innovatsion salohiyat - ichki muhitning mavjudligi bilan belgilanadi. Innovatsion muhit sifatida baholanuvchi ichki muhit va tashqi shart-sharoitlarning o‘zaro uyg‘unligi samarali innovatsion faoliyatni amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi (1-rasm).




1-rasm. Innovatsion muhitni shakllantirish (1)

Innovatsion jarayon barcha bo‘g‘inlarining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’min etuvchi zaruriy innovatsion muhitni yaratish uchun innovatsiyalarni amalga oshirishning barcha ichki va tashqi omillarini o‘zaro hamohanglikda rivojlantirish talab etiladi. YAngiliklar (biznes g‘oyalari, innovatsion loyihalari)ni yaratish va ularni amalga oshirishning eng muhim sharti innovatsion faoliyat sub`yeqtari (tadbirkorlar, innovatsion jamoa, faoliyat ko‘rsatuvchi kompaniyalar)da turlituman resurslarning umumiyligi bilan tavsiflanuvchi innovatsion salohiyatning mavjudligi bilan belgilanadi.

Tadbirkorlar innovatsion kompaniyani tashkil etish bosqichida zarur resurslarning barchasiga ham egalik qila olmasliklari mumkin, shunday bo‘lsa-da, innovatsion faoliyatni amalga oshirish chog‘ida ularga egalik qilishga intilish va ularning zarur ekanligini anglab etish eng muhim shart hisoblanadi. Potentsial har doim maqsadning ichki imkoniyatlarining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Faoliyat ko‘rsatuvchi kompaniyada innovatsion strategiya va innovatsion loyihalarni amalga oshirish ham, o‘z navbatida innovatsion salohiyatning asosiy komponentlari mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Ushbu vaziyatda, sanab o‘tilgan resurslar ilmiy-texnik salohiyat, ishlab chiqarish-texnologik salohiyat, moliyaviy-iqtisodiy salohiyat va kadrlar salohiyati sifatida

tartiblash mumkin bo‘lgan kompaniya umumiy resurs salohiyatining ajralmas bir bo‘lagi sanaladi (2-rasm).



2-rasm. Innovatsion salohiyat kompaniya umumiy salohiyatining bir qismi sifatida (1)

SHu bois, innovatsion potentsial haqida gapirganda, innovatsiya uchun zarur bo‘lgan resurslar mavjudligini emas, balki ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ham yodda tutish kerak. Ushbu imkoniyatlar, birinchi navbatda, ko‘zlangan innovatsion maqsadga erishilishiga ijobjiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi muhitga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos innovatsion muhitning shakllantirilishi bilan bog‘liq. SHunday qilib, mavjud va yangidan tashkil etilayotgan kompaniyalarning innovatsion rivojlanishi ko‘p jihatdan innovatsiya salohiyat darajasi va kompaniyaning innovatsiyalarni yaratish (tijoratlashtirish) borasidagi imkoniyatlarini tavsiflovchi innovatsion muhit bilan belgilanadi. Keyingi boblarda innovatsion salohiyatning asosiy omillaridan foydalanish mexanizmlarini bataysil ko‘rib chiqamiz. SHu bilan birga, ichki innovatsion muhit sifatida innovatsion salohiyatning mavjud ekanligi zarur omil hisoblansada, ilmiy-texnik faoliyat natijalarini samarali tarzda tijoratlashtirish va innovatsion strategiyalarni amalga oshirish uchun yetarli emas. Innovatsion jarayonda barcha yo‘nalishlarning samarali ishlashi va ilmiy ishlanmalarning tijoratlashuvini amalga oshirish uchun, yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, innovatsion rivojlanishga imkon beruvchi tashqi sharoitlarni yaratish zarur. Tashqi muhit omillari yangi institutsional tuzilmalarini yaratish va mavjudlarini yangilash, ularning funktsiyalari, faoliyat ko‘rsatish modellari va boshqa institutsional tuzilmalar bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini o‘zgartirish bilan bog‘liq. Har bir mamlakatning innovatsion iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo‘sadigan institutsional bozor tuzilmalarining yaxlitligi milliy innovatsion tizim (MIT)ni ifoda etadi. XX asrning 80-yillaridan buyon innovatsion tizimlarni yaratish dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirdorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Korxonalarni davlat tomonidan tartibga solish va ularga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida firmalar va tadbirdorlik sub`eklarining soni yil sayin oshib bormoqda. Mamlakat

iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili - korxonalarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu ularning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Milliy innovatsion tizimni tadqiq etishda tadqiqotchilar turli yondashuvlar va yo‘nalishlarga tayanib ish ko‘rsalarda, kontseptsiya asoschilari milliy innovatsion tizim borasida quyidagi umumiy ta‘rifga to‘xtaladilar: “**Milliy innovatsion tizim** - bu milliy chegaralar doirasida ilmiy bilim va texnologiyalarni ishlab chiqarish va tijorat-lashtirish bilan shug‘ullanuvchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tashkilot (tuzilma)lar - kichik va yirik kompaniyalar, universitetlar, davlat laboratoriyalari, texnoparklar va inkubatorlarning umumiyligidir. Ularning o‘zaro aloqasi mustahkam milliy ildizlarga, an`analarga, o‘ziga xos siyosiy va madaniy xususiyatlarga ega bo‘lgan huquqiy, moliyaviy va ijtimoiy institutlar majmuasi tomonidan ta`minlanadi”.

MIT lar kontseptsiyasining keyingi davrlardagi taraqqiyoti 1980 yilning o‘rtalarida ayniqsa avj oldi. Ushbu davrda ko‘plab olimlar o‘z ilmiy izlanishlari bilan milliy innovatsion tizimlarning rivojiga katta hissa qo‘shdilar. Mazkur ilmiy izlanishlar orasida B.Lundvall, K.Frimen va R.Nelsonlarning tadqiqotlari katta o‘rin tutadi. Qo‘yilgan masalalarni hal etishda ushbu mualliflar o‘ziga xos usul va yondashuvlardan foydala-nadilar. Xusan, B.Lundvall milliy innovatsion tizimlarning o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etsa, K.Frimen innovatsion faoliyatning institutsio-nal jihatlariga urg‘u beradi, R.Nelson davlat tomonidan amalga oshiriluvchi ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi siyosat masalalariga alohida to‘xtaladi(2).

B.Lundvall tadqiqotlari F.Listning «milliy ishlab chiqarish tizimlari» kontseptsiyasi va firmalar o‘rtasidagi texnologik hamkorlik yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy ishlarga tayanadi. B.Lundvall bir davlat ichida yangi bilim va texnologiyalar ishlab chiqaruvchilarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganib chiqdi. Muallifning fikriga ko‘ra, firmalarning texnologik hamkorligi ko‘pincha mamlakat ichida amalga oshiriladi va uning institutsional tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Globallashuv sharoitida xorijiy kompaniyalar bilan faol hamkorlik qilinishiga qaramay, innovatsion jarayonlar milliy tizimlar bilan uzviy aloqada bo‘ladi.

K.Frimen o‘z ishlarida T.Veblen, R.Kouz va G.Saymonning institutsional nazarialarining xulosalariga tayanadi. Uning ishlarida innovatsion faoliyatning institutsional tarkibi asosiy o‘ringa qo‘yiladi. K.Frimen MITni faollik va o‘zaro hamkorlik darajasi yangi texnologiyalarning tarqalishiga yordam beruvchi iqtisodiyotning davlat va xususiy sektoridagi institutsional tuzilmalarning o‘ziga xos tarmog‘i ekanligini ta‘kidlaydi. Ushbu muassasalar nafaqat tadqiqot o‘tkazish uchun mas‘ul bo‘lgan tashkilotlarni, balki mavjud darajadagi resurslarni korxona darajasida va milliy darajada boshqarishni o‘z ichiga oluvchi harakatlar tavsifini ham o‘z ichiga oladi. R.Nelson ishidagi asosiy muammolar davlat ilmiy va texnologik siyosatini amalga oshirish va mazkur siyosatni amalga oshirishda zamonaviy MIT doirasidagi imkoniyatlar va cheklolvar R.Nelson ishidagi asosiy muammolar hisoblanadi.

Shunday qilib, R.Nelson texnik taraqqiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatar ekan, qat’iy markazlashtirilgan boshqaruv va rejallashtirish innovatsion taraqqiyotning amalga oshishiga yo‘l qo‘ymasligini, shu sababli ham davlatning innovatsion siyosatini amalga oshirishda bozor regulyatorlarining joriy etilishi bir muncha ijobji natijalar berishini ta‘kidlab o‘tadi. SHuni ta‘kidlash kerakki, turli mamlakatlar uchun davlat tomonidan tartibga solishning turli mexanizmlari xos bo‘lsa-da, qo‘yilgan maqsadlarga erishishning faqatgina, umumiy qoidalari

mavjuddir. Bunday umumiy qoidalar sirasiga kontseptsiya mualliflari milliy innovatsion tizimni shakllantirish va uning samarali ishlashi uchun shart-sharoitlarni yaratib berishni kiritishadi (3-rasm).




Milliy innovatsion tizimlar kontseptsiyasini ishlab chiqish quyidagi uslubiy tamoyillarga asoslanadi:

Y.SHumpeterning g'oyalari: innovatsiyalar va ilmiy ishlanmalar - korporatsiyalar raqobatbardoshligining asosi; novator-tadbirkorning ilmiy ishlanmalarning tijoratlashuvidan o'rni.

F.Xayekning g'oyalari: iqtisodiy rivojlanish sohasidagi bilimlarning alohida o'rni ("bilim iqtisodiyoti", "kreativ" korporatsiya).

D.Nort g'oyalari: institutsional muhitning o'rni - keng tarmoqli bozor munosabatlari va mexanizmlarini yaratish bozorlarning samaradorligini ta'minlaydi.

Institutsional muhit hukumatning ilmiy-texnik va innovatsion siyosatini shakllantirish borasida davlatning yuritishi orqali ta'minlanadi. Mazkur holatlardan kelib chiqqan holda, 4-rasmda milliy innovatsion tizimni barpo etishning kontseptual sxemasi keltirib o'tilgan.



4-rasm. Milliy innovatsion tizimlarni yaratishning kontseptual sxemasi (2)

Ta'lim, fan (innovatsion g'oyalar manbai), biznes sohasi va ilmiy ishlanmalarning tijoratlashuviga ko'mak beruvchi innovatsion infratuzilmaning turli elementlari milliy innovatsion tizimning eng muhim tarkibiy elementlari bo'lib hisoblanadi. Har qanday samarali milliy innovatsion tizimining asosiy ishtirokchisi bo'lgan davlat uning barcha tarkibiy elementlarining faoliyatini muvofiqlashtirish asnosida innovatsiyalarning amalga oshishi uchun qulay muhit yaratilishini ta'min etadi.

Milliy innovatsion tizimning tub mohiyatini tushunib olish uchun dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida milliy innovatsion tizimni yaratishning quyidagi asosiy tamoyil va qoidalarini sanab o'tishimiz lozim:

1. Fan (innovatsiyalarning asosiy manbai) yopiq, izolyatsiya qilingan tizim hisoblanmaydi (universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari) va, aksincha, har bir yirik segment (davlat ilmiy-tadqiqot markazlari, yirik korporatsiyalarning ilmiy markazlari, kichik fan sig'imli biznes)ning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.
2. Tadbirkor, firma, davlat innovatsion jarayonning alohida elementlari sifatida emas, balki murakkab tizimning o'zaro bog'liq bo'g'lnlari sifatida qaraladi.
3. Innovatsion faoliyat samarali innovatsion infratuzilma va institutsional omillarning ma'lum bir to'plamining mavjudligi evaziga ta'min etiladi.

Bugungi kunda ko‘pgina tadqiqotchilar MITni texnologiyalarni ishlab chiqish, tarqatish va ulardan foydalanish bilan shug‘ullanuvchi muassasalar tarmog‘i va shuningdek, innovatsion jarayonlarni tartibga solish borasida hukumat tomonidan ishlab chqiluvchi va amalga oshiriluvchi institutsional chegaralarni shakllantirish sifatida tushuntirishga harakat qiladilar. Ammo, MITga oddiygina institutsional tuzilmalarning majmuasi sifatida baho berish mumkin emas, u yangi bozorlar chegarasi va milliy biznesning raqobatbardoshlik darajasini belgilab beruvchi, bilim va tajribalarni yaratish, tarqatish hamda amaliyotga izchil joriy etish borasidagi o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta`sirlashuvchi institutlar tizimidir.

Shunday qilib, milliy innovatsion tizimning muvaffaqiyatlari faoliyat ko‘rsatishi nafaqat kuchli fan va ta`limning mavjudligini, balki innovatsion maydonda asosiy “o‘yinchilar” sifatida davlat va xususiy sektorning o‘zaro samarali hamkorligini ham talab qiladi. Ushbu tizimlarning mohiyati davlat-xususiy innovatsion hamkorlikni yaratishdir, unda davlat hoqimiyati va biznes teng huquqli sheriklar bo‘lib, bir-birini o‘zaro to‘ldiradi. Davlat innovatsiyalarning manbai bo‘lgan ilmiy-texnikaviy soha va ta`lim tizimini qo‘llab-quvvatlaydi, davlat sektorida ilmiytadqiqotlar natijalaridan erkin foydalanishni ta`minlaydi, ulardan tijorat maqsadlarida foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratadi, zarur innovatsion infratuzilma, malakali kadrlar tayyorlash tizimi va samarali rivojlanish uchun zarur bo‘lgan huquqiy-me`yoriy baza yaratilishi borasida tegishli shart-sharoitlar yaratib beradi. Tadbirkorlar qo‘srimcha foyda olish maqsadida innovatsion mahsulot bozorida ishlashning barcha tijoriy tavakkalchiliklarini o‘z zimmasiga oladigan bir paytda, davlat soliqlardan o‘z dividendlarini oladi, ijtimoiy muammolarni hal qiladi va jahon miqyosida boshqa davlatlarga nisbatan o‘z o‘rnini mustahkamlaydi. Me`yoriy-huquqiy bazani yaxshilash, uni yangicha shart-sharoitlarga moslashtirish, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

REFERENCES

1. Innovatsiyalar iqtisodiyoti: oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma/ A.A. Abduvoxidov, O.T. Sattorqulov, Z.M. Zikriyayev, SH.X. Maxmudov, S. S. Rasulov, I. M. G‘aniyev, D. B. Eshpulatov, S.M. Kamilova, B.B.Sobirov Guliston, “ZIYO NASHR - MATBAA”, 2022.- 550 b.
2. Abduvoxidov A., Kamilova S. INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 12-21.
3. Халилдинов А. ИҚТИСОДИЁТНИ РАҶАМЛАШТИРИШДА ИННОВАЦИЯЛар ИННОВАЦИИ В ЦИФРОВАНИИ ЭКОНОМИКИ INNOVATIONS IN THE DIGITAL ECONOMY Холматов Б.(ФарДУ доценти) //Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. – 2021. – С. 296.
4. Khakimova, Muabara Khalilovna. "USE OF THE BRAINSTORMING METHOD IN THE TEACHING OF SOIL SCIENCE AS A FACTOR OF ACHIEVEMENT OF EFFECTIVENESS." Bulletin of Science and Education 6-3 (109) (2021): 56-61.